

8 sinf Algebra IV chorak 7-BSB topshiriqlari va mezonlari

Bob	Mavzu	Baholanadigan ko'nikma	Namunaviy topshiriq	Ajratilgan ball
IV bob. Ma'lumotlar tahlili (10 soat)	Ma'lumotlarni tasvirlash	Berilgan ma'lumotlarning chastotalar va nisbiy chastotalar jadvalini tuzadi	8-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, 20 nafar o'quvchining haftalik internetda o'tirish vaqti (soatlarda) quyidagicha qayd etildi: 5, 7, 6, 8, 7, 10, 12, 9, 6, 7, 11, 8, 9, 7, 6, 10, 8, 9, 7, 6. Ma'lumotlar asosida: 1) Chastotalar jadvalini tuzing. 2) Nisbiy chastotalar jadvalini tuzing.	6 ball
	O'rta qiymat. Moda. Mediana	Tanlanmaning o'rta qiymatini, modasini, medianasini, kengligini topa oladi	-3, 4, 5, -4, 1, 2, 4, -3, -2, 3, -3, 2 tanlanmaning 1) o'rta qiymatini; 2) modasini; 3) medianasini; 4) kengligini toping.	6 ball
	Kombinatorikaning asosiy qoidasi va uni masalalarni yechishda qo'llash	Raqamlari takrorlanishi mumkin va mumkin bo'lmagan hollar uchun sonlar tuzish	0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 raqamlari yordamida hammasi bo'lib nechta besh xonali son tuzish mumkin. Raqamlari takrorlanishi mumkin va mumkin bo'lmagan hollar uchun yeching.	6 ball

	qoidasini qo'llay oladi		
	Kombinatorika qoidalarini masalalar yechishda qo'llay oladi	Shaxmat taxtasida oq va qora ruxni bir-birini olishi mumkin (ura oladigan) qilib necha xil usulda joylashtirish mumkin? (Izoh: oq va qora rux vertikal va gorizontal bir qatorda joylashib qolsa, bir-birini urishi mumkin).	6 ball
	Kombinatorika qoidalarini masalalar yechishda qo'llay oladi, qarama-qarshi holatlar orqali masala yecha oladi	Yozuvida hech bo'lmaganda bitta juft raqam qatnashgan 5 xonali sonlar nechta?	6 ball
Jami			30 ball